

“O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 2024-yil III – chorak hisobot davri uchun UMUMIY MA’LUMOT

I. Kombinatning Korrupsiyaga qarshi chora tadbirlari dasturi bajarilganligi to‘g‘risida umumiylumot

“O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyatida 2024-yil III – chorak hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora – tadbirlar Dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

Hisobot davrida **43 ta** belgilangan tadbirdan **37 tasi** belgilangan muddatlarda amalga oshirilgan, **20 ta** tadbir bajarilishi doimiy amalga oshirib kelinmoqda.

“O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida ishonch telefonlari va telegram bot kanali, rasmiy veb – saytda esa “Korruptsiyaga qarshi kurashish” bo‘yicha alohida sahifa ochilgan va unda sohaga oid ichki me’yoriy va normativ hujjatlar va yangiliklar yoritib borilmoqda.

Korruptsiyaga qarshi talablar va axloqiy me’yorlarga va Qonun hujjatlariga qat’iy amal qilishga doir Kombinat Boshqaruv Raisi – Bosh Direktor tomonidan **2 marotaba** tadbir o‘tkazildi va tadbirlarda Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarda mazkur sohadagi kamchiliklar qayd etildi va tegishli topshiriqlar berildi.

Kombinat Boshqaruv Raisi – Bosh direktor o‘rinbosarlarining sohaga oid **8 ta** maqolalari “Metallurg Minbari va “Za Metall” gazetalarida chop etilib, ushbu maqolalarda sohada amalga oshirilayotgan ishlar qayd etilishi bilan birga, ushbu maqolalar asosida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududuviy filiallari xodimlarining mazkur sohadagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun davra suhbatlari o‘tkazilmoqda.

Hisobot davrida Kombinat tomonidan 2024-yil 22-avgust kuni tasdiqlangan 1163 i/ch – sonli buyruq asosida “ISO 37001:2016 Korruptsiyaga qarshi boshqaruv tizimi” Xalqaro standartini qo‘lga kiritish uchun tashqi audit o‘tkazildi va 2024-yil 10-oktyabr’ kuni tasdiqlangan 1397 i/ch – sonli buyruq asosida tashqi audit Sertifikatlash organi tomonidan berilgan nomuvofiqlikni bartaraf etish va tavsiyalarni amalda joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Shu bilan birga, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora tadbirlar Dasturiga muvofiq quyidagi ishlar amalga oshirildi.

II. “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosat va tartib taomillar

Hisobot davrida korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki me’yoriy hujjatlar va tartib qoidalar, Kombinat Kuzatuv Kengashi 2024-yil 19-yanvar’ 3-sonli bayonnomasi qarori bilan:

- “Axloq Kodeksi”;
- “Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati” tasdiqlandi.

Kombinat Kuzatuv Kengashi 2024 yil 24-may 7 – sonli bayonnomasi qarori bilan:

- “O‘zmetkombinat” AJ bo‘yicha “Sovg‘alar berish va qabul qilish va biznes mehmondo‘stlik Siyosati”;
- “O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergen xodimlarni rag‘batlantirish Tartibi” tasdiqlandi.

“O‘zmetkombinat” AJ Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish Siyosati, “O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida kontragentlarni (shartnoma munosabatlarini tuzishda “kontragentlarga nisbatan tegishli tekshiruv” tamoyili asosida) tekshirishga oid Yo‘riqnama” hamda “Xaridlarni amalga oshirishda narxlarning obyektivligini tekshirish Reglamenti” ishlab chiqilgan va Kombinat Kuzatuv Kengashining navbatdagi majlislarida ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilngan barcha ichki me'yoriy hujjatlar elektron shaklda axborot olish uchun Kombinatning rasmiy veb – saytiga joylashtirilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga doir **15 dan** ortiq ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, Kombinat Kuzatuv Kengashi bayonnomaga qarorlari bilan tasdiqlangan hamda xodimlar bilan tanishtish ishlari yakunlanib, hozirda amaliyotga tadbiq etish ishlari olib borilmoqda.

III. “O’zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xavf – xatarlarni baholash va ushbu sohadagi o’tkazilgan ichki audit natijalari

Kombinatda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va chek qo‘yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, ushbu illatga imkon beruvchi barcha sabablar va shart sharoitlarni bartaraf etish maqsadida 2024-yil mart oyida Kombinatning 9 direksiyasi va 89 ta funktsiyasi faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlari korrupsiyaga qarshi auditdan o’tkazildi. Audit jrayonida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqsh maqsadida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari hamda markaziy apparatidagi barcha lavozimlar tahlil qilinib, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar asosida “O’zmetkombinat” AJ ning xavf xatarlar xaritasi tuzildi. Ushbu xaritada, Kombinatning **59 ta** lavozimlarda korrupsiya xavfi “yuqori”, **18 tasida** “o‘rta” va **7 tasida** “past” ekanligi aniqlandi.

2024-yil iyun’ oyida sohada qabul qilingan qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlar to‘g‘risida xabardorlik bo‘yicha xodimlar o‘rtasida so‘rovnoma o’tkazildi. Mazkur so‘rovnomada **78 nafar** Kombinat xodimlari qatnashishdi. Ulardan **88,5%** Kombinat Komplayens – nazorat tizimi ish faoliyatini va natijadorligini yaxshi baholagan, **76,9 %** korrupsiya holatlari haqida xabar berganda ta‘qibga uchramasligi va o‘zi haqidagi ma'lumotlar oshkor bo‘lmasligiga ishonishi, **93,6 %** korrupsiya holatlari bo‘yicha kimga murojaat qilishni bilishi, **14,1 %** Kombinat faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvi, mahalliychilik, urug‘ aymoqchilik yoki tanish bilishchilik holatlari mayjudligi aniqlandi va natijada korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi tushunchalar tushuntirish ishlarini ko‘paytirish, xodimlarga axborot materiallarini tarqatish, shu mavzularda seminar va treninglar o’tkazish zaruruligi qayd qilindi.

Shuningdek, Kombinatning korrupsiyaviy xavf xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakllantirilib, korrupsiyaviy xavf xatarlarni minimallashtirish uchun 2024-yil 20-may kuni Kombinat, uning tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi, 2024-yil 22-yanvar’ kuni Kombinat xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida rejalashtirilgan tadbirlar Ish Rejasи, “Kombinatda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi hamda boshqa qoidabuzarliklarni oldini olish yo‘nalishida tarkibiy bo‘linmalarning majburiylari mavzusi bo‘yicha” maxsus o‘quv kursi dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotda tadbiq etilmoqda.

IV. “O’zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib taomillari

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

“O’zmetkombinat” AJ Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” talablari asosida korrupsiyaviy omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf etish etish maqsadida Kombinatning tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparati xodimlari tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasini to‘ldirilishi belgilab qo‘yilgan. Ushbu Nizom talabini bajarish maqsadida Kombinatning barcha xodimlari 2024-yil uchun manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shaklini hamda rotatsiya qilinganda va ishga qabul qilinayotgan barcha xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalari arizalari to‘ldirilmoqda. 2024-yil avgust oyidan Axborot

texnologiyalari direktsiyasi tomonidan barcha Kombinat xodimlari uchun manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalarini onlayn vaqt rejimida to‘ldirish tizimi ishga tushurildi.

Kombinatda xozirgi kunga qadar to‘ldirilgan **9264 ta** manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarini o‘rganish va tahlil qilinishi natijasida Kombinat xodimlarini boshqa hamkor yoki Kombinat bilan ho‘jalik shartnomasi tuzishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy kontragentlari bilan haqiqiy yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi aniqlanmagan va ushbu holat haqida Korrupsiyaga Qarshi Kurashish agentligiga 2024-yil 7-oktyabr’ kuni 01/01-01/01/2778-sonli xizmat xati bilan ma’lumot berilgan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Kombinat shartnomalariga kiritish

Kombinatda hisobot davrida umumiylis hisobda O‘zbekiston Respublikasining “Xaridlar to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabridagi PQ-3953-sonli qarori talablari asosida **2418 ta** shartnomalar rasmiylashtirilgan.

Kombinat bilan ho‘jalik shartnomalari tuzayotgan barcha kontragentlar Korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishlari majburiy bo‘lib, ho‘jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritishdan bosh tortgan kontragentlar bilan shartnomalar tuzilmasligi barcha hamkorlarga yetkazilgan.

2024-yil hisobot davrida eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo‘yicha tovarlar (*ishlar va xizmatlar*) xarid qilish narxlarini ekspertizadan o‘tkazish doirasida **371 talabnomasi** ko‘rib chiqilishi natijasida narxlarning **16 118 653 610.5 so‘mga** oshganligi aniqlanib, ushbu holatlar yuzasidan Ishlab chiqarishni ta’minalash departamenti tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan xarid qilish tartib - taomillarining narx parametrlarini optimallashtirish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berilgan.

Kontragentlarni tekshirish

“O‘zmetkombinat” AJning **1906 ta** amaldagi va potentsial kontragentlarining ishonchliligi va xalqaro, G‘arbiy va Yevropa Ittifoqi davlatlari sanksiyalariga muvofiqligi tekshirildi va ushbu tekshiruvlar yuzasidan **127 ta** holatlar aniqlandi. Kontragentlarni lozim darajada tekshirish doirasida, belgilangan talablarga muvofiq kontragentlarning davlat byudjeti oldidagi qarzlari (*soliqlar, MIB oldidagi qarzlar*) mavjudligi, uning faoliyati (*ishlayotgan korxona yoki faoliyati to‘xtatilganligi*), manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi, uning offshor zonalarida ishlashi, bankrotlik xavflari va boshqa xavflarga nisbatan tekshirildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Mazkur yo‘nalishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish maqsadida Kombinat markaziy apparati, hududiy va tarkibiy bo‘linmalaridagi bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar doimiy ravishda rasmiy – veb saytga va ijtimoiy tarmoqdagi Kombinatning rasmiy kanallarida e’lon qilinmoqda. Hisobot davrida **137 ta** lavozimga fuqarolarni ishga olish ochiq tanlov, test va suhbat sinovlari orqali amalga oshirilgan hamda sinov tadbirlarini Internet tarmog‘ orqali real vaqt rejimida kuzatish ta’milangan.

Shu bilan birga, “O‘zmetkombinat” AJ da, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomasi” asosida **137 nomzod** o‘rganilgan va tegishli hulosalar berilgan.

ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi” Xalqaro standarti va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi talabiga asosan xodimlarning mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha ogohlantirish bandlari kirirtildi.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

Kombinatda hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishning natijalarini markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida: o‘qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati 5% ni tashkil etdi, ta’lim shakli an’anaviy, maxsus va umumiylis

yo‘nalishda seminar tadbirlar o‘tkazildi. Kombinat ishga qabul qilinayotgan barcha nomzodlar mustaqil ravishda an’anaviy shaklda o‘qitilmoqda.

Hisobot davrida 2024-yilning mart–iyun’ oyalarida 2024-yil 25-mart 2125k – sonli va 2024-yil 27-iyun’ 4639k–sonli buyruqlari asosida **2 ta** umumiy oq‘itish seminarlari tashkil etilib, unda ijro apparatining, tarkibiy bo‘linma va hududiy filiallarning **44 nafar** xodimi qatnashgan. Barcha tinglovchilarga axborot materiallari tarqatilgan.

Korrupsiyaviy xavf - xatarlarga moyilligi yuqori bo‘lgan lavozimda ishlovchi Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparati xodimlari uchun “Smart Management” MChJ o‘quv markazini taklif qilgan holda 2024-yil 8-aprel’ kuni № 2500k – sonli buyrug‘i asosida “ISO:37001 korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruvi tizimi ichki auditori” mavzusida Maxsus o‘quv kursi tashkil etildi va Seminar imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan **55 nafar** xodimlarga xodimlarga ISO:37001 korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruvi tizimi ichki auditori sertifikatlari berildi.

2024-yil 18-sentyabr’ kuni 6892k – sonli buyrug‘i asosida Korrupsiyaviy xavf xatarlarga moyilligi yuqori bo‘lgan lavozimda ishlovchi Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari, markaziy apparatining **122 nafar** xodimlari uchun “Kombinatda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi hamda boshqa qoida buzarliklarni oldini olish mavzusida” maxsus o‘quv kursi seminari tashkil etildi. Seminarda ishtirok etgan xodimlar o‘rtasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va Manfaatlar to‘qnashuvi sohasida test sinovlari o‘tkazildi. Ishtirokchilar tomonidan 100 ballik baholashdan o‘rtacha 80 ball to‘plangan.

Maxsus o‘quv seminarlarida asosiy e’tibor tarkibiy bo‘linmalardan tayinlangan xavf - koordinatorlarni ishlab chiqarish, moliyaviy, xo‘jalik va “O‘zmetkombinat” AJ faoliyatidagi barcha xavflarni aniqlash va ularni qisqartirish hamda bartaraf etish bo‘yicha tegishli mos tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha malakalarini oshirishga qaratildi.

Hisobot davrida Komplayens - xizmati xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Raqobat va Iste’molchilar Huquqlarini Himoya Qilish Agentligi va Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi tomonidan davlat xaridlari va savdo sohasidagi davlat organlari va tashkilotlari raqobatga qarshi xatti-harakatlarni oldini olish va komplayens – nazorat qilish tizimini samarali joriy etish, korrupsiya xavflarini aniqlash va baholash bo‘yicha tashkil etilgan malaka oshirish kurslari va seminarlarida qatnashdilar.

Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari ishchi – xodimlari huquqiy ongini oshirish va korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi kabi illatlarga murosasizlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida **18 ta** yozma huquqiy targ‘bot materiallari, **12 ta** audiorolik va **3 ta** videoroliklar, **4 ta** qo‘llanmalar va **12 ta** iilyustrativ tarqatma materiallari ishlab chiqilmoqda va Kombinat rasmiy veb – sayti, ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarida kuzatuvchilar e’tiboriga taqdim qilinmoqda.

Kombinat xodimlarida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida Kombinat Boshqaruv Raisi – Bosh Direktor R.X..Pirmatov va Boshqaruv Raisning 1-o‘rnbosari – Ijrochi direktori R.S.Garayevning Kombinat rasmiy “Metallurg Minbari” va “Za Metall” gazetalarida e‘lon qilingan murojaatlari 1148-i/ch va 1251 –i/ch sonli buyruqlar asosida Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallarida majlislar va ishlab chiqarish yig‘ilishlarida bayonnomha rasmiylashtirgan holda barcha xodimlariga yetkazilmoqda.

VI. Korrupsiyaviy xatti – xarakatlar va huqubuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining tarkibiy bo‘linmalari va hududiy filiallari bo‘yicha aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti harakatlar to‘g‘risida joriy yilning 1-oktyabr’ holatiga ko‘ra jami **6 ta** murojaat kelib tushgan.

Barcha murojaatchilarga ularning arizalarini ko‘rib chiqish natijasi to‘g‘risida javob xatlari yuborilgan.

Korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqilganligi to'g'risida hisobotni Kombinat rasmiy veb – sayti Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga joylashtirilgan.

VII. Monitoring va nazorat

Hisobot davrida Komplayens – xizmati tomonidan **3 ta** keng qamrovli majmuuy komplayens monitoring o'tkazildi:

- sifatsiz mexanik uplotnitel' vallarini sotib olish faktiga nisbatan komplayens tekshiruvi o'tkazildi, komplayens tekshiruvi natijalariga ko'ra, kombinatning NPS bo'linmasi tomonidan 10 (o'n) birlik miqdorida Wilo EMU FA tipidagi oqova suvlarini tortish uchun mo'ljallangan nasoslari uchun texnik parametrlari va sifati mos kelmaydigan MFT 85/95-G6Q 12QIV mexanik uplotnitel' vallari sotib olinganligi va qabul qilinganligi tasdiqlangan. Tekshiruv davomida aniqlangan holat va omillarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi;

- fil'tr matosini sotib olish to'g'risidagi shartnomaga nisbatan komplayens tekshirish, komplayens tekshiruvi natijalariga ko'ra, Kombinat tomonidan tovarlarni (filtrlangan matoni) haddan tashqari yuqori narxlarda sotib olish to'g'risida shartnomada tuzilganligi aniqlandi. Shartnomada mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning takliflari joylashtirilgan elektron kooperatsiya portali orqali tuzilgan bo'lsa-da, Kombinat aslida ushbu mahsulotni Xitoydan qayta sotib olib qayta sotuvchi filtrlangan matoning mustaqil ishlab chiqaruvchisi bo'limgan korxona bilan shartnomada tuzganganligi aniqlangan. Bu, o'z navbatida, muqarrar ravishda EPEK va FICh bo'linmasi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun talab qilinadigan fil'tr yenglarining va o'z navbatida tayyor mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, bundan buyon aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug 'urta qilish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun shartnomada tuzishda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi komplayens - tekshirish, o'tkazilgan komplayens - tekshirish yakunlari bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'ortalash xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzishda manfaatlar to'qnashuvi sodir bo'lganligi, ya'ni savdo loti baholagan texnik xulosani tayyorlashda bevosita ishtirok etgan Sotib olishlar boshqarmasi Xizmatlarni sotib olish bo'limi boshlig'i B. Niyozov "KAFIL-SUG'URTA" AJ (lot yakunlari bo'yicha g'olib bo'lган kompaniya) boshqaruvi raisi F. Artikov bilan yaqin qarindoshlik aloqalariga ega ekanligi aniqlandi. Tekshiruv davomida **manfaatlar to'qnashuvi** omillari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralarli

Mehnat munosabatlarda qonun buzilish holatlarini va aloqa kanallari orqali yuborilgan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi to'g'risida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalari kesimida tahliliy ma'lumotlar:

Hisobot davrida 61 marotaba xizmat tekshiruvlari o'tkazildi. Xizmat tekshiruvlari natijasida:

- 27 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi;
- 73 nafar xodimga "xayfsa" intizmoy jazosi berildi;
- 12 nafar xodim oylik maoshining ma'lum foizidan mahrum qilindi;
- 17 nafar xodimga ogohlantirish berildi;
- 6 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan (Surxondaryo IQM filialida inventarizatsiyadan o'tkazilganda 4,953 tonna umumiyy qiymati 13 868 400 so'm bo'lgan metal parchalari kamomadi - yetishmasligi; "Xorazm" IQM filialida inventarizatsiya o'tkazilganda 306.338 tonna umumiyy qiymati 857 746 40, 00 so'm bo'lgan metal parchalari kamomadi - yetishmasligi; 93-soni omborxonada jami 538 296 764,33 so'mlik 59,41253 tonna dizel yoqilg'isi (salyarka) yetishmasligi; Kombinat hududidan jami 49 447 343,76 so'mlik issiqlik almashtirgichni

o‘g‘irlashga urinish; QPK omboridan 2700 kg umumiy qiymati 443 560 140 so‘m bo‘lgan mis kabel buxtalari va tayyor mahsulot omboridan 9730 kg 12 diametrli armatura, 242003-soni eritmalar o‘g‘irlanganligi holatlari).

Kombinat xodimlarining aniqlangan noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan 37 ta material huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Ichki tekshiruv va inventarizatsiya jarayonida 2 411 888 649,4 so‘mlik tovar-moddiy boyliklarni o‘g‘irlash va zarar yetkazish holatlari aniqlanib, materiallar ko‘rib chiqish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o‘tkazildi.

Jami 921 724 631,8 so‘m zarar qoplandi. Ytkazilgan zararning qolgan qismini qoplash choralar ko‘rilmoxda.

IX. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasি

Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha quyidagi chora – tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- Tizimli ravishda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish, shu jumladan, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o‘quv dasturlari, qo‘llanmalar ishlab chiqilishini takomillashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarori talablariga asosan, tashkilotning har bir funksiyasini korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan tahlil qilib borish, har bir funksiya bo‘yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning bartaraf etish bo‘yicha choralarни ko‘rib borilishi;

- manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan doimiy monitoring hamda ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o‘tkazilishini ta’minalash;

- korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o‘tkazib borilishini hamda korrupsiyaga oid qonunchilik va ichki idoraviy talablarni buzgan xodimlarga nisbatan ta’sirchan choralar qo‘llanilishini ta’minalash;

- Kombinatda korrupsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha anonim so‘rovnomalar o‘tkazish;

- korrupsiyaga oid murojaatlarni adolatli ko‘rib chiqilishini ta’minalash, mazkur sohada huquq tartibot idoralari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv Kengashi
huzuridagi Komplayens - xizmati boshlig‘i

Badalbayev A.A.